

BOSHQARISHNI RIVOJLANTIRISHDA TADQIQOTNING O'RNI**O'.M.Baytanov**

Jizzax politexnika instituti

“Iqtisodiyot va menejment” kafedrası v.b. dotsenti, PhD

Eshmatova Nodira

Kibersport fakulteti

533-21 BH va A guruhi talabasi

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada davlat tashkilotlari va nodavlat tashkilotlar ya'ni korxonalar, kompaniyalar, umuman olganda boshqaruvdagi barcha obektlarning samarali boshqaruvini ta'minlash va rivojlanishni to'g'ri tashkil qilish uchun boshqaruv jarayonida muammo va vaziyatlarni anglash, ularning kelib chiqish sabablari, xususiyatlari va mazmunini aniqlashga qaratilgan ilmiy izlanishlar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Tadqiqot, boshqaruv, rivojlanish, ilmiy tadqiqot, zamonaviy boshqaruv, tadqiqot samaradorligi, resurslarni samarali boshqarish, xatarlarni boshqarish, boshqaruv tizimi.

KIRISH

Dunyodagi barcha rivojlangan mamlakatlar singari O'zbekiston Respublikasi ham o'z oldiga ilmiy yutuqlarga asoslangan innovatsion iqtisodiyotga o'tish vazifasini qo'ymoqda. Buning uchun avvalambor har bir yo'nalishda boshqaruv samaradorligini oshirish zarur. Iqtisodiyotni rivojlantirish ostida ko'plab mahsulotlar chiqarish, ularni jahon bozoriga olib chiqish, investorlat jalb qilish, ilm-fanni rivojlantirish yotadi. Bularning hammasini to'g'ri yo'naltirish boshqaruvga borib taqaladi. Boshqaruvni to'g'ri olib borish esa o'z-o'zidan tadqiqotga borib taqaladi. Ishlab chiqarish va jamiyatning, texnologiya va insonning o'z rivojlanish xususiyatlari va shart-sharoitlarini aks ettiruvchi zamonaviy boshqaruv yana va yana tobora ko'proq darajada tadqiqot yondashuviga ehtiyoj sezmoqda. Bunday yondashuvni qo'llash boshqaruvning dinamik va istiqbolli bo'lishiga, uning innovatsion salohiyatining o'sishiga va boshqaruv qarorlarini qabul qilishda kasb mahoratining oshishiga, boshqaruvning ilmiy bo'lishiga ko'maklashadi.

Tadqiqot – bu muammo va vaziyatlarni anglash, ularning paydo bo'lishini aniqlash, xususiyatlari va mazmunini ochib berish, universal hal qilish yo'llari va vositalarini topishdan iborat faoliyat turidir. Masalan, ilmiy faoliyat, uning asosini tashkil qiladigan va tadqiqot obyektining o'zini tutish qonuniyatlarini aniqlashga, yangi bilimlarni olishga mo'ljallangan tadqiqotlarning maksimal hajmini nazarda tutadi. Boshqaruvning rivojlanib borishi davomida tadqiqotlarning o'rni va ulushi o'sib boradi. Chunki tadqiqotlar olib bormasdan boshqaruv samaradorligiga erishish judaqiyin kechadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili: Mantiqiy ma'lumotnoma-lug'atda N.I.Kondakova —tadqiqot tushunchasini quyidagicha ta'riflaydi: —Tadqiqot – biror-bir obyekt (predmet, hodisani), uning vujudga kelish qonuniyatlari, rivojlanishi va jamiyat manfaatlari yo'lida qayta o'zgartirish qonuniyatlarini ilmiy o'rganish jarayonidir. Falsafiy lug'atda nisbatan oddiyroq ta'rif berilgan: —Ilmiy tadqiqot – yangi ilmiy bilimlarni ishlab chiqish jarayoni, bilish faoliyati turlaridan biri.

Rivojlanish — tabiat va jamiyatdagi qonuniyatli o'zgarish; bir sifat holatidan boshqasiga, eskidan yangiga o'tish. Rivojlanish natijasida obyektning — tarkibi yoki strukturasi yangi sifat holati vujudga keladi. Rivojlanish tabiat, jamiyat va bilish tarixini tushuntirishning umumiy tamoyilidir. Rivojlanishning 2 shakli mavjud: obyektning sekin-asta sodir bo'luvchi miqdor o'zgarishlari bilan bog'liq evolyutsion rivojlanish va obyekt tuzilmasidagi sifat o'zgarishlaridan iborat inqilobiy rivojlanish. Evolyutsion rivojlanish jamiyatda bir tizimning asta-sekin, keskin portlashsiz bir sifatli asosdan ikkinchi sifatli asosga o'tishini, inqilobiy rivojlanish esa keskin portlash yo'li bilan bir sifatli asosdan ikkinchi sifatli asosga o'tishini bildiradi. Istalgan tadqiqot qator omillarning mavjud bo'lishini nazarda tutadi. Ularning eng muhimlari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

- tadqiqot metodologiyasi – tadqiqot maqsadlari, yondashuvlari, prinsiplari, mo‘ljallari, ustuvorliklari, vositalari va usullarining yig‘indisi;
- tadqiqotni tashkillashtirish – reglamentlar, me‘yorlar va yo‘riqnomalarda mustahkamlangan funksiyalar va javobgarliklarning taqsimlanishiga asoslangan o‘tkazish tartibi;
- tadqiqot resurslari – tadqiqotni muvaffaqiyatli o‘tkazish va uning natijalariga erishishni ta‘minlaydigan vositalar va imkoniyatlar (axborot, iqtisodiy, inson va h.k.) majmuasi;
- tadqiqotning obyekti (ijtimoiy-iqtisodiy tizimlar sinfiga kiritilgan boshqaruv tizimi) va predmeti (uning hal qilinishi tadqiqot o‘tkazishni talab qiluvchi aniq vaziyat);
- barcha tavsiflarning o‘ziga xosligini aks ettiruvchi tadqiqot turi;
- tadqiqot samaradorligi – tadqiqot o‘tkazishga sarflangan resurslar va olingan natijalarning mutanosibliigi.

Tadqiqotning asosiy komponentlari – maqsadlar va vazifalarning qo‘yilishi; mavjud axborotning, hal qilish sharoitlari va usullarining dastlabki tahlili; boshlang‘ich gipotezalarni ifodalash, eksperimentlarni rejalashtirish va tashkillashtirish, eksperimentlarni o‘tkazish, olingan natijalarni tahlil qilish va umumlashtirish; olingan dalillar asosida boshlang‘ich gipotezalarni tekshirish va yangi dalillar va qonunlarni yakuniy ifodalash, tushuntirishlarni yoki ilmiy bashoratlarni olish – bugungi kunda nafaqat nazariy fan uchun, balki boshqaruv amaliyoti uchun ham dolzarb hisoblanadi.

Muammolarni aniqlash va yechimlarni topish: Tadqiqot boshqaruvda yuzaga keladigan muammolarni o‘rganishga yordam beradi, ularni tahlil qiladi va samarali yechimlarni ishlab chiqadi. Muammolarni oldindan aniqlash orqali ularni bartaraf etish imkoniyati ortadi.

Ilmiy asoslangan qarorlar qabul qilish: Boshqaruvda ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanish rahbarlarga aniq va asosli qarorlar qabul qilishda yordam beradi.

Muammolarni aniqlash va tahlil qilish

Har qanday boshqaruv jarayonida muammolar va qiyinchiliklar mavjud bo‘lib, ularni samarali hal qilish uchun avvalo muammo sabablarini to‘g‘ri tushunish talab etiladi. Tadqiqotlar muammolarni aniqlash va ularni chuqur tahlil qilish imkonini beradi. Ilmiy-tadqiqot ishlari yordamida boshqaruv tizimidagi zaif tomonlar o‘rganilib, ular qay darajada ta‘sir ko‘rsatayotgani aniqlanadi. Bu jarayonda statistik ma‘lumotlar, so‘rovnomalar va kuzatuv kabi usullardan foydalanib, mavjud vaziyat va muammolarni keng qamrovda o‘rganish imkoniyati mavjud.

Ilmiy asoslangan qarorlar qabul qilish

Tadqiqotning eng muhim jihatlaridan biri — ilmiy va ma‘lumotlarga asoslangan qarorlar qabul qilish imkoniyatidir. Tadqiqotlarda qo‘llanilgan ma‘lumotlar rahbarlarga aniq, asoslangan va ob‘ektiv qarorlar qabul qilishda yordam beradi. Masalan, bozor tahlili, raqobatchilar faoliyatini o‘rganish yoki iste‘molchilar talablari va ehtiyojlarini o‘rganish orqali boshqaruv qarorlari asoslanadi va bu orqali tashkilot muvaffaqiyatga erishadi.

Innovatsiyalarni joriy etish

Zamonaviy tashkilotlarda raqobatda ustunlikka ega bo‘lishning asosiy usuli — innovatsiyalardir. Tadqiqot va rivojlantirish faoliyati tashkilotlarda yangicha yondashuvlar va texnologiyalarni tatbiq etishga imkon yaratadi. Yangi g‘oya va texnologiyalarni ishlab chiqish orqali tashkilot o‘z mahsulot va xizmatlarining sifati va samaradorligini oshiradi. Innovatsion tadqiqotlar, shuningdek, operatsion jarayonlarni optimallashtirish va xarajatlarni kamaytirishga yordam beradi.

Resurslarni samarali boshqarish

Resurslarni boshqarish tashkilot muvaffaqiyatida muhim omil hisoblanadi. Tadqiqotlar resurslarni qanday taqsimlash kerakligini aniqlashga va mavjud resurslardan samarali foydalanishga yordam beradi. Tadqiqot asosida tashkilotda resurslarni to‘g‘ri taqsimlash, kadrlarni samarali boshqarish, shuningdek, moliyaviy resurslarni optimallashtirish yo‘llari ishlab chiqiladi. Masalan, mehnat resurslarini tahlil qilish orqali tashkilot kadrlar samaradorligini oshirish yo‘llarini aniqlashi mumkin.

Boshqaruv jarayonlarini optimallashtirish

Boshqaruvda ilmiy tadqiqotlar jarayonlarni optimallashtirishda muhim ahamiyatga ega. Tadqiqot asosida tashkilot ichidagi barcha bo‘limlar va ularning faoliyatlari tahlil qilinadi, samaradorlikni

oshirish uchun qanday o'zgarishlar qilish kerakligi aniqlanadi. Buning uchun zamonaviy tadqiqot uslublari, jumladan, biznes jarayonlarni model qilish, SWOT-tahlil, benchmarking kabi vositalardan foydalaniladi. Shu orqali boshqaruv jarayonlari yangilanadi, byurokrtiyani qisqartirish va ish jarayonlarini soddalashtirish imkoniyati paydo bo'ladi.

Xatarlarni boshqarish

Har qanday biznes faoliyatida xatarlar mavjud va ular muvaffaqiyatga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Tadqiqot xatarlarni aniqlash, baholash va kamaytirishga qaratilgan usullarni ishlab chiqish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Xatarlarni boshqarish strategiyalari orqali tashkilotlar moliyaviy, operatsion yoki bozor xatarlariga tayyorlanib, ularga qarshi kerakli chora-tadbirlarni ko'ra oladi. Xatarlarni tahlil qilish orqali tashkilot kelajakdagi noaniqliklarga nisbatan barqaror strategiyalar ishlab chiqishi mumkin.

Xodimlarni rivojlantirish va motivatsiya

Tadqiqotlar xodimlarning malakasini oshirish, motivatsiya va qoniqish darajasini aniqlash va ularni tashkilot maqsadlariga moslashtirish uchun juda foydali. Xodimlarning ehtiyojlari va karyera maqsadlarini aniqlash orqali tashkilot ularga moslashtirilgan treninglar va motivatsion dasturlarni ishlab chiqishi mumkin. Bu xodimlar faoliyatining samaradorligini oshirish, ularning tashkilotga sodiqligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Boshqarishni rivojlantirishda tadqiqotning o'rni: Ishlab chiqarish misolida

Ishlab chiqarish sektorida boshqaruvni rivojlantirish va samaradorlikni oshirish, doimiy ravishda tadqiqot va tahlillarni talab etadi. Tadqiqot, ishlab chiqarish jarayonlarini chuqur tushunish, resurslardan samarali foydalanish va raqobatbardosh mahsulot yaratish imkonini beradi. Quyida ishlab chiqarishda boshqaruvni rivojlantirishda tadqiqotning o'rni va uning turli yo'nalishlardagi ahamiyati haqida batafsil bayon qilinadi.

Mahsulot sifati va innovatsiyalarni joriy etish

Ishlab chiqarish korxonalarini mahsulot sifati doimiy ravishda oshirib borishi kerak. Tadqiqotlar yangi materiallar, texnologiyalar va ishlab chiqarish usullarini izlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, mahsulot tahlillari orqali ishlab chiqaruvchilar yangi, innovatsion materiallardan foydalanish yoki mavjud ishlab chiqarish texnologiyalarini takomillashtirish yo'llarini aniqlaydilar. Bu orqali nafaqat sifat yaxshilanadi, balki ishlab chiqarish jarayonida texnologik yangiliklar tezda joriy etiladi, bu esa raqobatbardoshlikni oshiradi.

Boshqaruvda tadqiqot ishlab chiqarish jarayonlarini takomillashtirish va optimallashtirishda ham katta rol o'ynaydi. Tadqiqot asosida ishlab chiqarish liniyalari, uskunalari va texnologik jarayonlarning samaradorligi tahlil qilinadi, zaif tomonlari aniqlanadi va kerakli chora-tadbirlar belgilanadi. Masalan, ishlab chiqarish jarayonlarining oqimlarini tahlil qilish orqali vaqt va resurslar tejash, shuningdek, jarayonlarni soddalashtirish va ish unumdorligini oshirish mumkin.

Ishlab chiqarishdagi xatarlarni boshqarish

Tadqiqot va tahlillar ishlab chiqarishdagi xatarlarni aniqlash va kamaytirishga qaratilgan strategiyalar ishlab chiqishda ham foydali. Ishlab chiqarish jarayonlarida turli xatarlar mavjud, masalan, texnik nosozliklar, resurslarning yetishmasligi yoki operatsion xatoliklar. Tadqiqot yordamida ushbu xatarlar aniqlanib, ularga qarshi zarur choralar ko'riladi. Masalan, mahsulot sifatidagi yomonlashuvlarni aniqlash uchun sifat nazorati tizimlarini ishlab chiqish va ishlab chiqarishga tatbiq etish mumkin.

Xomashyo va resurslarni boshqarish

Ishlab chiqarishda xomashyo va resurslardan samarali foydalanish katta ahamiyatga ega. Tadqiqot asosida xomashyo sarfini kamaytirish, uning sifatini yaxshilash va yangi, arzonroq alternativ xomashyolardan foydalanish imkoniyatlarini o'rganish mumkin. Resurslarni boshqarish tadqiqotlari orqali ishlab chiqarishning har bir bosqichida qaysi resurslardan qanday foydalanish kerakligini aniq belgilashga yordam beradi.

Raqobatchilar faoliyatini o'rganish

Tadqiqot yordamida ishlab chiqarish korxonalarini raqobatchilar faoliyatini o'rganishi va o'z raqobatbardoshligini oshirishi mumkin.

Raqobatchilar mahsulotlari va ishlab chiqarish texnologiyalarini tahlil qilish orqali kompaniya o'z mahsulotini yanada takomillashtirish, yangi texnologiyalar joriy etish va mijozlar talablariga javob beruvchi mahsulotlar ishlab chiqarish imkoniyatiga ega bo'ladi. Raqobatchilarni o'rganish ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va bozor ulushini kengaytirish uchun ham muhimdir.

Xulosa

Boshqaruvni rivojlantirishda tadqiqotning o'rni beqiyos. Tadqiqotlar orqali tashkilotlar o'z faoliyatini chuqur tahlil qilish, yangi strategiyalarni ishlab chiqish va rivojlanish yo'nalishlarini belgilash imkoniyatiga ega bo'ladi. Zamonaviy tadqiqot usullari asosida tashkilotning raqobatbardoshligi, resurslardan samarali foydalanish darajasi va umumiy samaradorligi oshadi. Shu sababli, tadqiqotlar tashkilot boshqaruviga ilmiy va tizimli yondashuvni ta'minlaydi, boshqaruv jarayonlarini modernizatsiya qilishda hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Tadqiqotlar yordamida yangilanib boradigan va muammolarga to'g'ri javob beraoladigan boshqaruv tizimi, tashkilotlar muvaffaqiyati va raqobat ustunligini ta'minlash uchun muhim omil hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. N.Q. YO'LDOSHEV, J.X.RASHIDOV- "MENEJMENTNING TADQIQOT USULLARI"- TOSHKENT – «IQTISODIYOT » – 2019
2. Sobirov A.A. Boshqarish nazariyasi asoslari. O'quv-uslubiy majmua. - T.: TDIU, 2011.